

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Mamadaliyeva Kanizaxon Ermatjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

1-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishning muhimligini, zamonaviy ta'limda uning o'rnini va o'qituvchilarning professional faoliyatida kreativlikni rivojlantirish yo'llarini o'rganadi. Maqola kreativlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy usullari va texnologiyalari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagog, ta'lim, innovatsiya, metodika, texnologiya, rivojlantirish.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Мамедалиева Канизахон Эрматжон кызы

Кокандский государственный университет

Теория и методика воспитания и обучения (начальное образование)

1 курс

Аннотация: В статье рассматриваются значение формирования и развития креативности у будущих педагогов, её место в современном образовании, а также пути развития креативности в профессиональной деятельности педагогов. В статье представлена информация о теоретических основах, практических методах и технологиях развития креативности.

Ключевые слова: креативность, педагог, образование, инновации,

методика, технология, развитие.

WAYS OF FORMING AND DEVELOPING CREATIVITY IN FUTURE EDUCATORS

Mamadaliyeva Kanizaxon Ermatjon qizi

Kokand State University

Theory and Methodology of Education and Training (Primary Education)

1st year

Annotation: This article examines the importance of forming and developing creativity in future educators, its place in modern education, and ways to develop creativity in the professional activities of teachers. The article provides information on the theoretical foundations, practical methods and technologies of developing creativity.

Keywords: creativity, educator, education, innovation, methodology, technology, development.

Hozirgi kunga kelib dars berish jarayonida ko'plab o'qituvchilar zamonaviy dars berish jarayonini o'rganishlari qiyin bo'lmoqda. Ular dars berish vaqtida eskicha oddiy dars jarayonidan foydalanishmoqda. Biz hozir bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini ertangi pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish, kreativlik sharoitlarni yaratishimiz va ularga ta'lim berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishimiz kerak. o' Biz birinchi navbatda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishimiz kerak. Buning uchun biz "kreativlik" tushunchasi nima ekanligini, uni qanday hollarda qo'llanilishi va qanday amalga oshirish kerakligini o'rgatishimiz va o'rganishimiz kerak. Chunki pedagoglarda kreativlik sifatlarining bo'lmasligi ularning ta'lim jarayonida talabalarni qancha g'oya va

qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lmasin ularni qo'llashi yoki ifodalay olishida anchagina qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Kreativlik (lot, ing. "create"- yaratish, "creative"- yaratuvchi, ijodkor) - shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishi va ularni amaliyotda sinashda yangi yo'llarni tarkib toptirish qobiliyati. Demak, kreativlik bu yangidan yangi g'oyalarni yaratishdir. Bu g'oyalarni yaratishda faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xoslik (originallik) va takomillashganlik kabi asosiy xususiyatlarga ega bo'lish kerak. Bunda har bir o'quvchi kreativlik tushunchasini anglay olishi kerak. Ular o'z kreativligini tashkil qilgan bir ishiga, qilgan mashg'ulotlari va vazifalariga ijodiy yondashuvida aks ettirishadi. Demak har bir bo'lajak pedagog o'zida kreativlikni shakllantirish kerak. Bu esa pedagogik kreativlikni keltirib chiqaradi. Pedagogik kreativlik. 1–pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muaommolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxsning birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik" asosida shakllanadi. A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi.

Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shartsharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash; ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta'lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqida qarorni ishonch toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish; o'quv jarayonini ta'lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

ta'lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Bugungi kunda ta'lim tizimi shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir paytda, bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kreativ o'qituvchi darslarni qiziqarli, interaktiv va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan holda o'tkaza oladi. Shuningdek, u yangi metodlar va texnologiyalarni qo'llash, muammolarni ijodiy hal qilish va o'quvchilarni ilhomlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kreativlikning nazariy asoslari

Kreativlik - bu yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangicha usulda qo'llash va muammolarni original yechimlar bilan hal qilish qobiliyatidir. Psixologiya va pedagogikada kreativlikning turli nazariyalari mavjud, masalan:

- G'oyalar assotsiatsiyasi nazariyasi: Kreativlik g'oyalarni bog'lash va yangi kombinatsiyalar yaratish orqali namoyon bo'ladi.
- Konvergent va divergent tafakkur nazariyasi: Konvergent tafakkur bir to'g'ri javobga yo'naltirilgan bo'lsa, divergent tafakkur turli xil yechimlarni topishga qaratilgan. Kreativlik divergent tafakkurning mahsulidir.
- Muammolarni hal qilish nazariyasi: Kreativlik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni yangicha usullar bilan hal qilish orqali rivojlanadi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish usullari

1. O'quv jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash: Munozaralar, guruhli loyihalar, rolli o'yinlar va keys-stadilar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning kreativ tafakkurini rivojlantiradi.

2. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish: O'quvchilarga real hayotiy muammolarni taqdim etish va ularni mustaqil ravishda yechishga undash orqali

kreativlikni rivojlantirish mumkin.

3. STEAM ta'lim yondashuvini joriy etish: Fan, texnologiya, injeneriya, san'at va matematika fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

4. Texnologiyalardan foydalanish: Raqamli vositalar, virtual laboratoriyalar, animatsion dasturlar va boshqa texnologiyalar o'quvchilarga yangi g'oyalar yaratish va ularni vizuallashtirish imkoniyatini beradi.

5. Ijodiy muhit yaratish: O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, xatolardan qo'rqqmaslikka va yangi narsalarni sinab ko'rishga undash orqali kreativlikni rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Usmonboyeva, A.To'rayev. Kreativ pedagogika asoslar. T.: 2016
2. To'xtaxodjayeva M., Nishonova S. "pedagogika" 1-qism Toshkent,
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart,2010.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 –yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida " gi PF-5847-son Farmoni
5. Karimova Barno Ergashevna "Kreativ pedagogika"